



## O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB - QUVVATLASH.

Xudoyberdiyev Doniyor Dilshod o'g'li  
Axborot texnologiyalar va  
menejment universiteti 1-bosqich talabasi.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20354257>

**Annotatsiya:** O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab quvvatlashning bugungi holati, mexanizmlari, va samaradorligi tahlil qilinadi. Kichik biznesning o'rni beqiyos ekanligini inobatga olib, sohaga ajratilayotgan imtiyozli kreditlar, subsidiyalar kafilliklar va soliq imtiyozlarining amaliy tasiri o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Kichik biznes, tadbirkorlik, xususiy moliya tashkilotlari, kreditlar, subsidiyalar, soliq imtiyozlari.

Hozir mamlakatimizning barqaror taraqqiyoti ta'minlash maqsadida, ishbilarmonlik va tadbirkorlik muhitini tubdan yaxshilash uchun zarur shart sharoitlar va qulayliklar yaratilmoqda. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlanishi ijtimoiy taraqqiyotda muhim omil hisoblanadi. Ular nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki ijtimoiy barqarorlikni taminlashda yuqori hissa qo'shadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari bilan O'zbekiston Respublikasini 2019-2021 -yillarda innovatsion rivojlantirish strategiyasi, O'zbekiston Respublikasi oliy talim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, Ilm-fanni 2030 -yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, „Raqamli O'zbekiston-2030“, strategiyasi, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi tasdiqlandi. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Milliy statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 2025 yilning yanvar – iyul oylarida 47796 ta kichik tadbirkorlik subyekti tashkil etildi. Sunda savdo sohasida 17587ta, qishloq xo'jaligi sohasida 6183 ta, sanoat sohasida esa 6189 ta, yashash va ovqatlanish xizmatlari sohasida 4234 ta, qurilish sohasida 1512 ta tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan. 2025 yilning yanvar -iyun oylarida YaIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarning ulushi 49 % ni tashkil etgan. [1].

Bugungi kunda, kichik biznes va tadbirkorlikni sub'yektlari mamlakatimiz iqtisodiyotining barcha jabhalarida, mashinasozlik, ishlab chiqarish, xalq iste'moli mollarini, qishloq xo'jaligi va oziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishda va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatmoqda.[2]. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab quvvatlash, ularning samarali faoliyat ko'rsatishi uchun barcha shart sharoit yaratish, biznesni rivojlantirish orqali aholining bandligini ta'minlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida birgina o'tgan bir yilning o'zida kichik tadbirkorlar soni 40 mingga, o'rta tadbirkorlar soni 2 mingga, yirik korxonalar soni 400 taga ko'payadi. Berilgan yengilliklardan foydalanib, bir yilda 155 ta korxonaning yillik aylanmasi 100 million dollardan oshdi. [3].

Shu bilan birgalikda tadbirkorlarni moliyaviy tomondan qo'llab quvvatlash uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining bir qancha qarorlari qabul qilingan. Jumladan

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida“ gi 2023 yil 14 sentabrdagi PQ -306 Sonli qarori qabul qilindi. Bu qarorga muvofiq „Har bir oila – tadbirkor „ dasturi asosida „ Mikrocreditbank,, AKTga joylashtiri lgan 425 millard so'm miqdoridagi depozit mablag'larini qaytarish muddati 7 yilga uzaytirildi[4].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2025 yil 19 mart kuni kichik biznes va o'rta biznes vakillari bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Yig'ilishda kichik o'rta biznesni rivojlantirishning ustuvor g'oyalari belgilab olindi. Xususan , 2025 yil uchun bir qator maqsadlar belgilandi jumladan:

Sektorning iqtisodiyotdagi ulushi 55 % yetkazish, 70 millard dollarlik qo'shimcha qiymart yaratish.

Mahsulotlarni tashish, sertifikatlashtirish va standartlashtirshni qo'llab quvvatlash orqali kichik biznes eksportini 9 dan 12 millard dollargacha kengaytirish.

1,5 million doimiy ish o'rni yaratishva ushbu sohada band aholi ulushini 75 foizga yetkazish.

Ishchilar soni 100 dan ortiq bo'lgan korxonalar hajmini 4000 taga yetkazish.

Kichik biznes sohasida 100 ta yangi brend ishlab chiqish.

Kichik biznesni jalb etgan holda 200 ta startap loyihasini moliyalashtirish.

2025 yilda uni amalga oshirish uchun turli manbalardan 10 millard dollar ajratish belgilangan edi. Aholini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish uchun 22 million so'm miqdorda imtiyozli resurslar ajratilmoqda.

Joriy yildan boshlab kichik biznes subyektlariga 300 million so'mgacha kreditlar ajratila boshlandi.

Bundan tashqari , oilaviy tadbirkorlik dasturlari doirasida 50 million so'mgacha garovsiz kreditlar ajratiladi [5].

Davlat va nazorat idoralarining korxonalar moliyaviy -xo'jalik faoliyatiga aralashuvini keskin kamaytirish hamda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy erkinligini va huquqlarini sezilarli ravishda kengaytirish bo'yicha choralari qabul qilindi [6].

Shu bilan birgalikda tadbirkorlarni qo'llab quvvatlash uchun foizsiz kreditlar ajratish ham yo'lga qo'yilgan. Buning uchun kishik biznes subyektlarini kreditlashning me'yoriy - huquqiy asoslari ham yaratilgan.

Bu asoslar quydagilardan iborat :

O'zbekiston Respublikasining „ Banklar va bbanklar faoliyati to'g'risidagi „qonuni . 5. 11 .2019.

O'zbekiston Respublikasining „Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to'g'risidagi,, qonuni 20. 04.2022.

Tijorat banking kredit siyosati va boshqalar [7].

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.[https:// interspp. Com](https://interspp.com)
- 2.<https://webjournal.ru>
- 3.[https:// parliament. Gov.uz.](https://parliament.gov.uz)
- 4.[https.://lex uz.](https://lex.uz)
- 5.[https:// www gazeta uz](https://www.gazeta.uz)



6. [https:// Arxiv.uz](https://Arxiv.uz)

7. [https:// docx.uz](https://docx.uz)

